



EDUCATION OF FUTURE TEACHERS PREPARATION FOR EFFECTIVE TEACHING OF THE SUBJECT

Farsakhonova Dilafruz Rizakhanovna

the head of the associate professor of education of Jizzakh State
University Doctor of philosophy in pedagogical sciences
dilafruzfars04@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17336559>

ARTICLE INFO

Received: 05th October 2025

Accepted: 10th October 2025

Online: 13th October 2025

KEYWORDS

education, student, interactive
method, innovation, training,
problem-based education,
collaborative education,
textbook, method, moral
education.

ABSTRACT

In this article, we will discuss specific methods, approaches and methodologies for preparing future primary school teachers for effective teaching of the subject of "education" in an innovative educational environment based on modern technologies.

BO'LAJAK PEDAGOGLARNI TARBIYA FANINI SAMARALI O'QITISHGA TAYYORLASH METODIKASI

Farsaxonova Dilafruz Rizaxanovna

Jizzax davlat universiteti tarbiya kafedrasida dotsenti

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori

dilafruzfars04@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17336559>

ARTICLE INFO

Received: 05th October 2025

Accepted: 10th October 2025

Online: 13th October 2025

KEYWORDS

ta'lim, tarbiya, o'quvchi,
interfaol metod, innovatsiya,
trening, muammoli ta'lim,
hamkorlikdagi ta'lim,
«Tarbiya» fani, darslik, metod,
odob, axloq, axloqiy tarbiya.

ABSTRACT

Mazkur maqolada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini «Tarbiya» fanini innovatsion ta'lim muhitida zamonaviy texnologiyalar asosida samarali o'qitishga tayyorlashning o'ziga xos usullari, yondashuvlari, metodikasi xususida fikr yuritiladi.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimi shaxsga yo'naltirilgan, qadriyatlar asosida rivojlanayotgan ijtimoiy-pedagogik muhitni yaratishni talab qiladi. Bu jarayonda tarbiya fani o'quvchining nafaqat bilimli, balki barkamol, axloqiy, ma'naviy jihatdan yetuk inson bo'lib kamol topishida asosiy omillardan biri hisoblanadi.



Mustaqillik yillari tom ma'noda O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti istiqbolini belgilash, jahon hamjamiyati mamlakatlari safidan munosib o'rin egallashga intilish yo'lidagi keng ko'lamli ishlarni amalga oshirish bilan kechmoqda. Jahonning rivojlangan mamlakatlari tajribalarini o'rganish, mahalliy shart-sharoit, iqtisodiy va intellektual resurslarni inobatga olgan holda, jamiyat hayotining barcha sohalarida tub islohotlarning amalga oshirilayotganligi yangidan yangi yutuqlarga erishishni ta'minlamoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligiga erishgach, mamlakatning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-ma'rifiy hayotida tub o'zgarishlar ro'y berishiga keng imkoniyatlar ochildi. Respublika rahbariyati boshchiligida mamlakat taraqqiyotining barcha sohalarida chuqur islohotlar amalga oshirildi va bu jarayon davom etmoqda. Jumladan, zamon talabiga va jahon standartlariga javob beradigan yetuk kadrlar tayyorlash bo'yicha ta'lim sohasida ham islohotlar olib borilmoqda. Shu asnoda, mustaqillik sharoitida mamlakatimizda buyuk ma'naviyatimizni tiklash va yanada yuksaltirish, milliy ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, zamon talablari bilan uyg'unlashtirish maqsadida, yetuk kadrlar tayyorlash ishini jahon andozalari darajasiga chiqarish masalalariga alohida ahamiyat berilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o'zining Oliy Majlisga Murojaatnomasida "...intellektual va madaniy salohiyatning qanday noyob boylik ekani, nodir talant egalarini tarbiyalab kamolga yetkazish hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini unutishga haqqimiz yo'q"¹, – deya ta'kidlagan edi.

Tarbiya – bu faqat ma'lum qoidalarni o'rgatish emas, balki shaxsning ichki dunyosini, qadriyatlarga bo'lgan munosabatini shakllantirish, uni Vatanga sadoqatli, jamoaga foydali inson qilib tarbiyalashdir. Shu sababli, pedagoglar, xususan, boshlang'ich ta'lim yo'nalishidagi mutaxassislar tarbiya fanini chuqur bilishlari, uni o'z faoliyatlarida samarali qo'llay olishlari zarur.

Xalq ta'limi vazirligi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev raisligida 2019 yilning 23 avgust kuni xalq ta'limi tizimini rivojlantirish, pedagoglarning malakasi va jamiyatdagi nufuzini oshirish, yosh avlod ma'naviyatini yuksaltirish masalalariga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishida berilgan topshiriqlar ijrosini ta'minlash yuzasidan Vazirlar Mahkamasining "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida "Tarbiya" fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy qilish choralari to'g'risida"gi qarori loyihasi ishlab chiqildi.

2020 yil 06 iyulda "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida "Tarbiya" fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" 422-sonli qaror qabul qilindi.

Qarorga muvofiq, umumiy o'rta ta'lim muassasalarida "Odobnoma", "Vatan tuyg'usi", "Milliy istiqloq g'oyasi va ma'naviyat asoslari" hamda "Dunyo dinlari tarixi" fanlarini birlashtirgan holda "Tarbiya" fani 1–9-sinflarda – 2020/2021 o'quv yilidan, 10–11-sinflarda esa 2021/2022 o'quv yilidan boshlab fanlarga ajratilgan umumiy soatlar doirasida bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etiladi.

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. // Xalq so'zi. 2017-yil 23-dekabr.



Qaror bilan umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilari uchun "Tarbiya" fani kontseptsiyasi tasdiqlandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi PQ-4884-son qaroriga asosan Ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini yanada takomillashtirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqildi. Mazkur dasturda 1-9-sinflar uchun yaratilgan «Tarbiya» fani darsligini davriylik asosida qayta nashr etishda buyuk bobolarimiz asarlaridan keng foydalangan holda to'ldirib borish vazifasi belgilab berilgan.

Tarbiya — yosh avlodni jamiyatga foydali, axloqan barkamol, ma'naviy yetuk va jismonan sog'lom shaxs qilib shakllantirish jarayonidir. Bu jarayon har bir pedagog faoliyatining ajralmas qismi bo'lib, ayniqsa bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda **tarbiya fani** alohida ahamiyat kasb etadi.

Tarbiya fanini o'qitishning asosiy maqsadi bo'lajak pedagoglarga tarbiya nazariyasi va amaliyoti haqida chuqur bilim berish, ularni tarbiyaviy jarayonni to'g'ri tashkil eta oladigan, zamonaviy metodlardan foydalana oladigan va har tomonlama yetuk tarbiyachi sifatida tayyorlashdan iborat.

Ushbu maqsadning mohiyati quyidagilarda aks etadi:

- bo'lajak o'qituvchilarda tarbiya jarayonining mazmuni, tamoyillari va qonuniyatlari haqidagi bilimlarni shakllantirish;
- ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq, tarbiyaviy faoliyatga mas'uliyat bilan yondashadigan shaxs sifatida tarbiyalash;
- amaliyotda tarbiyaviy metodlar va texnologiyalarni to'g'ri qo'llay olish ko'nikmalarini hosil qilish;
- o'quvchilar bilan tarbiyaviy ishlarda individual yondashuvni shakllantirishga tayyorlash.

Bo'lajak pedagoglar tarbiya fanini o'rganish davomida quyidagi vazifalarni amalga oshiradilar:

1. **Tarbiya jarayonining nazariy asoslarini o'zlashtirish.** Tarbiyaning maqsadi, vazifalari, mazmuni, tamoyillari, metod va vositalari haqida chuqur bilim olish. Turli tarbiya konsepsiyalari bilan tanishish.

2. **Pedagogik fikrlashni shakllantirish.** Tarbiyaviy vaziyatlarni tahlil qilish, muammoni aniqlash va uni hal qilish yo'llarini izlash orqali mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish.

3. **Tarbiyaviy ishlarni loyihalash va tashkil etish ko'nikmalarini rivojlantirish.** Tarbiyaviy tadbirlar senariysi tuzish, sinfda va sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarni samarali tashkil qilish, o'quvchilarni ijtimoiy hayotga tayyorlashga xizmat qiluvchi mashg'ulotlarni o'tkazishga o'rganish.

4. **Axloqiy, ma'naviy, estetik, ekologik va mehnat tarbiyasi yo'nalishlarida bilim va yondashuvlarni egallash.** Tarbiyaning turli yo'nalishlari bo'yicha zamonaviy yondashuvlar, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyaviy ishlarni olib borishga tayyorlanish.

5. **Pedagogik madaniyat va kasbiy fazilatlarni rivojlantirish.** O'qituvchining nutqi, kiyinish madaniyati, muomala madaniyati va o'zini tutish qoidalari bilan tanishish orqali kasbiy etika va estetikani shakllantirish.



6. Mustaqil ijodiy yondashuv va innovatsion fikrlashni rivojlantirish. Tarbiyaviy faoliyatda yangi usullarni qo'llash, ijodiy loyihalar ishlab chiqish, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirish.

NATIJALAR

Tarbiya fanini o'zlashtirish orqali bo'lajak pedagog har bir darsni tarbiyaviy yo'nalishda tashkil eta oladi, sinf jamoasida ijobiy muhit yaratishga erishadi. Tarbiya fani — pedagogik ta'lim tizimining muhim tarkibiy qismi bo'lib, bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ushbu fan orqali o'qituvchi nafaqat nazariy bilim, balki amaliy ko'nikma va tarbiyaviy faoliyatga mas'uliyatli munosabatni ham egallaydi. Shuning uchun har bir pedagog tarbiya fanini chuqur o'rganib, uni o'z amaliy faoliyatida samarali qo'llay olishi lozim.

Bo'lajak pedagoglarga tarbiya fanini samarali o'rgatishda faqat ma'ruza va nazariy tushunchalar yetarli emas. Bu borada zamonaviy, innovatsion yondashuvlardan, jumladan:

- muammoli ta'lim;
- interfaol metodlar (munozara, rolli o'yinlar, aqliy hujum);
- treninglar va guruhli ishlash texnologiyasi;
- hayotiy vaziyatlar asosida tahlil qilish kabi usullardan foydalanish katta samara beradi.

Bunday yondashuvlar nafaqat fan mazmunini yaxshi o'zlashtirishga, balki talabada real vaziyatlarda tarbiyaviy yondashuvni to'g'ri qo'llay olish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Boshlang'ich ta'lim tarbiya darslarini o'qitishning innovatsion yondashuv asosida tashkil etish omillari quyidagilardan iborat:

- boshlang'ich ta'lim tarbiya darslarini innovatsion yondashuv asosida tashkil etish borasida muayyan shart-sharoitlarni yaratish;
- pedagog xodimlari o'rtasida interfaol metodlar mohiyatini ochib berishga qaratilgan maxsus o'quv seminarlarini tashkil etish;
- ular tomonidan pedagogik texnologiya asoslarini puxta o'zlashtirilishiga erishish;
- pedagoglarda ta'lim-tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishga nisbatan ijodiy yondashuv hissini tarbiyalash;
- o'qituvchilarda darslarni texnologik yondashuv asosida tashkil etish ko'nikma va malakalarini hosil qilish;
- o'qituvchilar tomonidan ta'lim-tarbiyaviy ishlarni interfaol metodlar asosida tashkil etilishiga erishish;
- o'qituvchilarning texnologik asosda pedagogik faoliyatni tashkil etish borasidagi mahoratlarini oshirish;
- boshlang'ich ta'lim darslarining samaradorligini ta'minlash.

O'qituvchilarda pedagogik faoliyatni interfaol metodlar asosida tashkil etish malakasini shakllantirishning bir qator tamoyillari mavjud. Ular quyidagilar:

1. Darslarni interfaol metodlar asosida tashkil etish borasidagi yagona maqsadning qaror topganligi.
2. Harakatning izchil, maqsadga muvofiq, tizimli va uzluksiz amalga oshirilishi.



3. Darslarni interfaol metodlar asosida tashkil etishda mavjud shart-sharoit hamda sub'ektiv yondashuvlarni inobatga olish.
4. Pedagogik mahorat va iqtidorlarni erkin namoyish etish.
5. Yangi tajribalarni ommalashtirish.
6. Nazariy va amaliy faoliyat birligi [4; 225].

Darslarni samarali tashkil etishda mazkur tamoyillarni inobatga olish ijobiy samaralarni beradi.

Bo'lajak o'qituvchi uchun **pedagogik kompetensiya** – bu kasbiy bilim, amaliy ko'nikma va shaxsiy sifatlarning uyg'unligidir. Tarbiya fani aynan shu kompetensiyalarning quyidagi turlarini rivojlantiradi:

- **Axloqiy va ijtimoiy kompetensiya** – o'quvchining shaxsiyati bilan ishlash, ijtimoiy normalarni singdirish;
- **Kommunikativ kompetensiya** – o'quvchilar bilan sog'lom, ochiq muloqot yuritish;
- **Reflektiv kompetensiya** – o'z tarbiyaviy faoliyatini tahlil qila olish;
- **Tarbiyaviy texnologiyalarni qo'llash kompetensiyasi** – turli metodlar orqali o'quvchilarda ijobiy xulq-atvorni shakllantirish.

Bo'lajak pedagog bu kompetensiyalarni o'zlashtirmasdan turib, sinfdagi murakkab tarbiyaviy muammolarga to'g'ri yondasha olmaydi.

MUHOKAMA

Tarbiya fanini samarali o'qitish uchun nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog'lash muhim. Talabalarning pedagogik amaliyoti, dars kuzatuvlari, mustaqil mashg'ulotlar orqali ular tarbiyaviy faoliyatni real muhitda sinab ko'rish imkoniga ega bo'ladi. Yosh pedagoglarga tarbiya darsini samarali o'qitishni tashkil etish uchun quyidagi amaliy ishlar ayniqsa foydalidir:

- tarbiyaviy dars ishlanmasi tuzish va taqdimot qilish;
- sinf soatlariga ssenariy tayyorlash;
- trening mashg'ulotlarini tashkil qilish;
- tarbiyaviy tadbirlar rejasini ishlab chiqish;
- jamoaviy rolli o'yinlarda ishtirok etish.

Bularning barchasi talabalarda tarbiya faniga nisbatan ongli yondashuv, mustaqil fikrlash va tashabbuskorlikni shakllantiradi.

XULOSA

Ilmiy izlanishlarimiz natijasiga ko'ra, bo'lajak pedagoglarni tarbiya fanini samarali o'qitishga tayyorlash maqsadida quyidagi **takliflarni** keltirib o'tishimiz mumkin:

- tarbiya faniga oid zamonaviy o'quv adabiyotlar va trening qo'llanmalar sonini ko'paytirish;
- fan doirasida o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasiga qaratilgan loyiha ishlarini yo'lga qo'yish;
- amaliy mashg'ulotlarda real sinf holatlariga asoslangan case-studylardan foydalanish;
- pedagogik amaliyotda tarbiyaviy jarayonni tahlil qilish bo'yicha seminarlar tashkil etish.



Xulosa qilib aytganda, tarbiya fanini samarali o'qitish — bu bo'lajak pedagoglarni nafaqat nazariy bilim bilan qurollantirish, balki ularda mustahkam kasbiy pozitsiya va tarbiyaviy mas'uliyatni shakllantirishdir. Bugungi kunda har bir o'qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki **shaxs tarbiyalovchi yetakchi** sifatida yetishmog'i lozim..

ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES):

1. Mirziyoev Sh. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz (1-jild). – Toshkent: O'zbekiston. NMIU, 2017. 592 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. // Xalq so'zi. 2017-yil 23-dekabr.
3. Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi // Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrda 1059-son qarori.
4. Abdullayeva B. va b. (2021). Umumiy pedagogika. Innovatsiya-Ziyo.
5. Ismatova N. va b. (2023). Tarbiya: 2-sinf uchun darslik. 1-nashr. Novda.
6. Farsaxonova D.R. (2025). Boshlang'ich ta'limda tarbiya fani. Ilm nuri print.
7. Farsaxonova D.R. (2009). Talabalarga ma'naviy-axloqiy tarbiya berish texnologiyasi. Fan va texnologiyalar.
8. Farsaxonova, D.R. (2022). Tarbiyaviy ishlar metodikasi fanini o'qitish texnologiyasi. Fan ziyosi.
9. Farsakhanova, D. (2020). About the use of interactive methods in developing students' speech. Архив Научных Публикаций JSPI.
10. Farsakhanova, D. R. (2009). The technology of spiritual and moral education of students (teaching guide). Tashkent, 104.
11. Farsakhanova, D. (2020). Improvement of the methodology of spiritual and moral education of students of pedagogical institutions. Архив Научных Публикаций JSPI.
12. Usmanova O.V. va b. Tarbiya: 1-sinf uchun darslik. 1-nashr. – T.: Novda nomidagi nashriyot-manbaa ijodiy uyi, 2023. – 64 b.
13. Ro'zieva D. va b. Tarbiya: 3-sinf uchun darslik. 1-nashr. – T.: "Sano standart", 2023. – 96 b.
14. Shermuxamedova, S. va b. Tarbiya: 4-sinf uchun darslik. 1-nashr. – T.: "O'zbekiston", 2023. – 96 b.